



## O‘zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlar faoliyati (2021-yil yanvar-iyun)

2021- yilning 1- iyul holatiga ko‘ra jami **20** ta maxsus iqtisodiy zona (keyingi o‘rinlarda – MIZ), **98** ta kichik sanoat zonasi (keyingi o‘rinlarda – KSZ), **11** ta texnopark hamda **427** ta klasterlar (keyingi o‘rinlarda – klaster) mavjud bo‘lib, ularning tarkibidagi korxonalar soni MIZlarda **529** tani, KSZlarida – **1846** tani, texnoparklarda – **74** tani va klasterlarda – **431** tani tashkil etdi.



### 2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar





2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra hududlar kesimida MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar soni\*, birlikda

	Jami	shu jumladan:			
		MIZ	KSZ	texnopark	klaster
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>556</b>	<b>20</b>	<b>98</b>	<b>11</b>	<b>427</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	60	1	11	-	48
<i>viloyatlar:</i>					
Andijon	19	1	2	-	16
Buxoro	59	2	3	1	53
Jizzax	50	2	1	-	47
Qashqadaryo	39	-	9	-	30
Navoiy	48	1	1	2	44
Namangan	32	2	9	-	21
Samarqand	43	1	1	-	41
Surxondaryo	58	2	18	-	38
Sirdaryo	34	2	7	-	25
Toshkent	42	4	17	-	21
Farg'ona	22	1	10	-	11
Xorazm	40	1	1	7	31
Toshkent sh.	10	-	8	1	1

*\*) Maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, texnopark va klasterlar soni ularning ishtirokchilari bo'lgan korxonalar bo'yicha shakllantirilgan.*



2021- yilning yanvar-iyun oylarida MIZ, KSZ,  
texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar  
tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi jami – **18338.0** mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan: MIZda – **7439,0** mlrd. so'mni, KSZda – **1577,1** mlrd. so'mni, texnopark – **188,3** mlrd. so'mni va klasterlarda – **9133,6** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Eng yuqori ko'rsatkich klasterlar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, **9133,6** mlrd. so'mni tashkil etgan.



► **Tagqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-iyun oylarida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi jami 10828,2 mlrd. so'mni tashkil etgan shundan: MIZda – 4946,5 mlrd. so'm, KSZda – 1021,6 mlrd. so'm, texnoparkda – 69,4 mlrd. so'm va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarda 4790,7 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ushbu ko'rsatkich jami 18338,0 mlrd. so'mni tashkil qildi shundan: MIZda – 7439,0 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 50,4 % ga oshgan), KSZda – 1577,1 mlrd. so'm (54,4 % ga oshgan), texnoparkda – 188,3 mlrd. so'm (2,7 m. ga ko'paygan) va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarda 9133,6 mlrd. so'mni (1,9 m. ga ko'paygan) tashkil qilgan.




2021- yilning yanvar-iyun oylarida MIZ, KSZ, texnoparklar va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarining sanoat ishlab chiqarish hajmi

	Tarkibidagi korxonalar soni	Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'mda
<b>Jami</b>	<b>2880</b>	<b>18338,0</b>
<i>shundan:</i>		
<b>MIZ</b>	529	7439,0
<b>KSZ</b>	1846	1577,1
<b>Texnoparklar</b>	74	188,3
<b>Klasterlar</b>	431	9133,6



2021- yilning yanvar-iyunida MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'mda



2021- yilning yanvar-iyun oylarida MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan:




– o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami – **64,0** mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan: MIZda – **12,6** mlrd.so'mni, KSZda – **50,9** mlrd.so'mni, texnopark – **0,5** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Eng yuqori ko'rsatkich KSZ tarkibidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, **50,9** mlrd. so'mni tashkil etgan.



2021- yilning yanvar-iyun oylarida MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm



	Tarkibidagi korxonalar soni	O'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, mlrd.so'mda
<b>Jami</b>	<b>2880</b>	<b>64,0</b>
<i>shundan:</i>		
<b>MIZ</b>	529	12,6
<b>KSZ</b>	1846	50,9
<b>Texnoparklar</b>	74	0,5
<b>Klasterlar</b>	431	-

► **Taqqoslash uchun:** 2020 - yilning yanvar-iyun oylarida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami – 20,7 mlrd. so'mni tashkil qildi shundan: MIZda – 10,5 mlrd. so'mni, KSZda – 10,2 mlrd. so'm tashkil qilgan bo'lsa, 2021 - yilning yanvar-iyun oylarida ushbu ko'rsatkich jami – 64,0 mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan: MIZda – 12,6 mlrd. so'mni, KSZda – 50,9 mlrd. so'mni tashkil qilgan.

### 2021- yilning yanvar-iyun oylarida MIZ, KSZ, texnopark va klasterlarlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan:

– moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi jami – **1931,9** mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan: MIZda – **1365,6** mlrd. so'mni, KSZda – **102,9** mlrd. so'mni, texnopark – **11,6** mlrd. so'mni va klasterlarda – **451,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.



2021- yil yanvar-iyun oylarida MIZ, KSZ, texnopark va klasterlarlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi


	Tarkibidagi korxonalar soni	Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, mlrd.so'mda
<b>Jami</b>	<b>2880</b>	<b>1931,9</b>
<i>shundan:</i>		
<b>MIZ</b>	529	1365,6
<b>KSZ</b>	1846	102,9
<b>Texnoparklar</b>	74	11,6
<b>Klasterlar</b>	431	451,8



► **Tagqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar - iyun oylarida moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi jami – 1280,3 mlrd. so'mni tshkil qildi, shundan: MIZda – 955,9 mlrd. so'm, KSZda – 87,3 mlrd. so'm, texnoparkda – 0,4 mlrd. so'm va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarda 236,7 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar – iyun oylarida ushbu ko'rsatkich jami – 1931,9 mlrd. so'mni tashkil qildi shundan: MIZda – 1365,6 mlrd. so'mni (investitsiyalar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 42,9 % ga ko'paygan), KSZda – 102,9 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,9 % ga ko'paygan), texnoparkda – 11,6 mlrd. so'mni (29 m. ga ko'paygan), klasterlarda – 451,8 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 90,9 % ga ko'paygan) tashkil qilgan.



2021- yilning yanvar-iyunida MIZ, KSZ, texnopark, klasterlar bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'mda



## 2021- yilning yanvar-iyun oylarida MIZ, KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan:

– foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (-) miqdori jami – **389,9** mlrd. so'mni tashkil qildi shundan: MIZda – **257,9** mlrd. so'm zararni, KSZda – **50,9** mlrd. so'mni, texnopark – **6,5** mlrd. so'mni va klasterlarda – **590,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.





► **Tagqoslash uchun:** 2020 - yilning yanvar-iyun oylarida foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar (-) miqdori jami – **1878,8** mlrd. so'mni tashkil qildi shundan: MIZda – **500,8** mlrd. so'm, KSZda – **1335,0**, mlrd. so'm, texnoparkda – **7,4** mlrd. so'm va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarda **35,6** mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-iyun oylarida ushbu ko'rsatkich miqdori jami – **389,9** mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan: MIZda – **257,9** mlrd. so'm zararni, KSZda – **50,9** mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,1** martaga ko'paygan), texnoparkda – **6,5** mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,1** % ga ko'paygan), klasterlarda – **590,4** mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,6** martaga ko'paygan) tashkil etgan.





2021- yilning yanvar-iyun oylarida MIZ, KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar (-) miqdori, mlrd. so'mda



2021- yilning yanvar-iyun oylarida MIZlar tarkibiga kiruvchi korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari

	Tarkibidagi korxonalar soni	Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (-), mlrd. so'mda
<b>Jami</b>	<b>2880</b>	<b>389,9</b>
<i>shundan:</i>		
<b>MIZ</b>	529	-257,9
<b>KSZ</b>	1846	50,9
<b>Texnoparklar</b>	74	6,5
<b>Klasterlar</b>	431	590,4

## 2021- yil 1 - iyul holatiga ko'ra, MIZ, KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarining debitor va kreditor qarzdorligi

Debitor qarzdorlik miqdori jami – **8032,2** mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan: MIZda – **3806,3** mlrd. so'mni, (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,9 % ga o'sgan), KSZda – **535,0** mlrd. so'mni, (51,5 % ga o'sgan), texnopark – **37,7** mlrd. so'mni (3,9 % ga oshgan) va klasterlarda – **3653,2** mlrd. so'mni (15,8 % ga oshgan) tashkil etdi.

Kreditor qarzdorlik miqdori jami – **10452,2** mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan: MIZda – **5202,5** mlrd. so'mni, (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,7 % ga kamaygan), KSZda – **1074,1** mlrd. so'mni, (44,7 % ga o'sgan), texnopark – **65,3** mlrd. so'mni (72,3 % ga o'sgan) va klasterlarda – **4110,3** mlrd. so'mni (51,5 % ga oshgan) tashkil etdi.


### ► Tagqoslash uchun:

2020 – yil 1- iyul holatiga ko'ra, debitor qarzdorlik miqdori jami – **9050,7** mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan: MIZda – **4321,1** mlrd. so'mni, KSZda – **353,1** mlrd. so'mni, texnoparklar – **36,3** mlrd. so'mni va klasterlarda – **4340,2** mlrd. so'mni tashkil qilgan.

Kreditor qarzdorlik miqdori jami – **9253,1** mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan: MIZda – **5760,5** mlrd. so'mni, KSZda – **742,1** mlrd. so'mni, texnoparklar – **37,9** mlrd. so'mni va klasterlarda – **2712,6** mlrd. so'mni tashkil qilgan.



MIZ, KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalarining 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, debitor va kreditor qarzdorligi, mlrd.so'mda




**2021 - yilning yanvar-iyun oylarida MIZ, KSZ, texnopark, klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan:**

Respublikadan tashqari (eksport)ga yuklab jo‘natilgan sanoat mahsulot (tovarlar va xizmatlar)lari miqdori jami – **2430,6** mlrd. so‘mni tashkil qildi shundan: MIZda – **1067,7** mlrd. so‘mni, KSZda – **489,7** mlrd. so‘mni, texnopark – **42,2** mlrd. so‘mni va klasterlarda – **2631,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi.




**2021- yilning yanvar-iyunida MIZ, KSZ, texnopark, klasterlar bo‘yicha respublikadan tashqari (eksport)ga yuklab jo‘natilgan sanoat mahsulot (tovarlar va xizmat)lari hajmi, mlrd. so‘mda**





## 2021- yil yanvar-iyun oylarida MIZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot turlari, % da



## 2021- yil yanvar-iyun oylarida KSZ tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot turlari, % da

